

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2023
MAXSUS SON

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Э.Б.Ягьяева	
Дифференцированный метода обучения при изучении иностранного языка и организации самостоятельной работы студентов.....	114
М.К.Мавлюда	
O'qituvchi kompetensiyasining o'ziga xos xususiyatlari.....	117
G.A.Asomiddinova	
Qahramon xarakterini yaratishda badiiy nutq imkoniyatlari va muallif mahorati.....	120
N.K.Abbasova, Z.Q.Xakimova	
Speech act as an important function of communication.....	125
Sh.R.Muydinov	
Linguoculturological description of zoonym composite partial similarities.....	128
M.Madaminova	
Exploring the persuasive power of publicistic style: utilizing proverbs and sayings in english lesson.....	130
Sh.M.Yusufjonova	
Frazeologizmlar taqiqi.....	134
Ш.И.Аскарова	
К проблеме языковой интерференции и билингвизма при изучении третичного языка.....	137
Ш.И.Аскарова	
К вопросу трансфера и интерференции при изучении немецкого после английского языка.....	141
Sh.Sh.Dadabayeva	
Tarjimada so'zning kontekstdagi ma'nosini aniqlash usullari.....	148
Sh.Sh.Dadabayeva	
Tarjima jarayonida vaziyatning o'rganilishi.....	152
Sh.Y.Usmonova	
Cognitive analysis of landscape terms in uzbek and english languages.....	159
Sh.Y.Usmonova	
O'zbek va ingliz tillarining terminologik tizimida landshaft terminlarining o'rni.....	162
Z.Sh.Pazilova	
Nemis xalqida dafn marosimining o'tkazilishi.....	167
Z.Sh.Pazilova	
O'zbek va nemis xalqlarida to'y bilan bog'liq shaxs nomlari.....	170
R.U.Axrorova	
Lingvomadaniyatshunoslik: lingvokulturema va logoepistema.....	173
O.O.Bobokalonov, R.U.Akhrorova	
Shifonemas in phraseological units related to the period of youth.....	178
R.U.Axrorova	
Fransuz ertaklarida yoshga oid reprezentlarning leksik-semantik va milliy-madaniy xususiyatlari.....	182
Z.M.Abdullaev	
Nemis tili ismlari motivlari va ism tanlashga ta'sir etuvchi omillar.....	185
Z.M.Abdullaev	
Nemis tilida atoqli otlar va ularning tasnif etilishi.....	188
I.R.O'rinboyev	
Ba'zi na'matak (<i>Rosa</i>) turlarining Farg'ona shahrida tarqalishi va dorivorlik xususiyatlari.....	190
I.D.Yakubov	
Separator-tozalagich qurilmasining parametrlari.....	193
M.Nazarov, A.T.Maxsudaxon	
Javdarni jadal texnologiyada parvarishlash.....	201
Ё.Г.Абдуганиев	
Получение и свойства производных перфторакриловой и перфторметакриловой кислоты.....	205
D.M.Ahmedova	
Ekologik munosabatlarning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari.....	215

O'QITUVCHI KOMPETENSIYASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI
ОСОБЕННОСТИ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГА
SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE TEACHER'S COMPETENCE

Mavlyuda Mukaramovna Kaxarova¹

¹Farg'ona davlat universiteti,
nemis va fransuz tillari kafedrası professori, filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya

Ma'lumki, bugungi jadal suratlar bilan rivojlanib borayotgan globallashuv jarayonida xorijiy til o'qituvchilariga kasbiy faoliyatlarida bir qator vazifalar qo'yiladi. Mazkur maqolada xorijiy til darslarini sifatli va samarali tashkillashda o'qituvchi kompetensiyalarining eng muhim xususiyatlari haqida xorijiy metodist olimlarining bu boradagi fikrlariga tayanilgan holda atroflicha fikr yuritiladi va ilmiy-nazariy jihatdan dallillab beriladi.

Аннотация

Известно, что в условиях современного быстро развивающегося процесса глобализации перед преподавателями иностранного языка в своей профессиональной деятельности ставится ряд задач. В данной статье обсуждаются и научно и теоретически обоснованы важнейшие особенности компетенций учителя в качественной и эффективной организации занятий по иностранному языку, опираясь на мнения зарубежных учёных-методистов по этому поводу.

Abstract

It is known that in today's rapidly developing process of globalization, foreign language teachers are given a number of tasks in their professional activities. In this article, the most important features of the teacher's competencies in the qualitative and effective organization of foreign language classes are discussed and scientifically and theoretically proven, relying on the opinions of foreign Methodist scientists in this regard.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetensiya, didaktik kompetensiya, darsni tashkillash kompetensiyasi, suhbatlashish kompetensiyasi, munosabat kompetensiyasi, shaxsiy kompetensiya, metodik kompetensiya, evaluatsion kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, tarbiyalash kompetensiyasi, shaxsiy va ijtimoiy kompetensiya, rivojlantiruvchi kompetensiya.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, дидактическая компетентность, компетентность организации урока, разговорная компетентность, реляционная компетентность, личностная компетентность, методическая компетентность, оценочная компетентность, коммуникативная компетентность, образовательная компетентность, личностная и социальная компетентность, развивающая компетентность.

Key words: professional competence, didactic competence, lesson organization competence, conversational competence, relational competence, personal competence, methodical competence, evaluative competence, communicative competence, educational competence, personal and social competence, developmental competence.

KIRISH

Ma'lumki, o'qituvchining xarakter va shaxsiyat jihatlaridan tashqari, o'z faoliyati uchun boshqa kompetensiyalarni ham egallashi lozimdir. Shu nuqtai nazardan, o'qituvchilarning kasbiy mahorati bilim darajasiga bog'liq emasligini anglatadi. Muhimi, o'qituvchining kundalik o'qitish jarayonidagi o'z mahorati bilan muvaffaqiyatli bajara oladigan ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Shuning uchun o'qituvchilar nemis tilini o'qitish bilan bog'liq turli faoliyatlarida har tomonlama kompetensiyalarini rivojlantirishga harakat qilishlari kerak. Biz buni quyidagi ikki misolda ko'rsatishga harakat qilamiz:

1. Diagnostik faoliyat. O'qituvchilar o'quv jarayoni davomida o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash uchun g'oyalarni ishlab chiqishlari bundan tashqari, o'qituvchi o'zining g'oyasi bilan talabalarni demotivatsiya (qarshi yo'naltirish) qilmaydigan tarzda etkazish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

2. Darsni rejalashtirish faoliyati. O'qituvchilar o'quv maqsadlarini belgilashlari, materiallarni tanlash, vazifalar qo'yish va o'rganish ketma-ketligini tizimli shakllantira olishlari kerak. Bu esa nemis tilini o'rganish bo'yicha ma'lum bilimlarni talab qiladi.


Ushbu faoliyat sohalarining har biri uchun o'qituvchiga keng ko'lamli bilim va ko'nikmalar kerak bo'ladi. Masalan, mavzular va matnlar haqidagi bilimlar. Qaysi mavzular nemis tilida so'zlashuvchi mamlakatlardagi hayot tarziga mos keladi? Qaysi mavzular til o'rganuvchilar uchun

qiziq? Asl matnlarni qanday soddalashtirish mumkin? Qaysi mashqlar va topshiriqlarni matnlarga moslash mumkin?

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADVIQOT USLUBLARI

Nemis metodist olimi Hans Rudolf Lanker o'qituvchi kompetensiyasini go'yo aysbergga o'hshatib, quyidagi kompetensiyalar asosida ko'rsatib beradi.

kasbiy kompetensiya
didaktik kompetensiya
darsni tashkillash kompetensiyasi
suhbatlashish kompetensiyasi
munosabat kompetensiyasi
shaxsiy kompetensiya



Taniqli nemis metodist olimi Hilbert Meyer darsni talab darajasida tashkillash uchun quyidagi jihatlarini alohida ta'kidlab o'tadi. Darslarning aniq tuzilishi, ya'ni darslar aniq qismlarga bo'lingan bo'lishi, o'quvchilar nima qilish lozimligini tushunishlari, ajratilgan vaq haqiqatan ham o'rganish uchun sarflanishi yani, arziyas narsalarga ishlatilmasligi, o'rganish uchun qulay iqlim, do'stona muhit yaratilishi, samarali muloqot bo'lishi, usullarning xilma-xilligi, ya'ni o'qituvchi turli usullardan foydala olishi, individual yordam, ya'ni o'qituvchi alohida o'quvchilarga javob berishi va ularni qo'llab-quvvatlashi va rag'batlantirib turishi kabilar muhim ro'l o'ynashini ta'kidlab o'tadi.

Ingliz metodist olimi Rod Ellis tilni samarali o'qitish tamoyillari sifatida quyidagilarga ajratadi. O'qitish o'quvchilarning lingvistik ifodaning boy repertuariga va grammatik ko'nikmalarga ega bo'lishini ta'minlashi, ta'lim o'quvchilar diqqatini jamlashga qaratilgan bo'lishi kerakligi, o'qitish o'quvchilarning chet tili haqidagi bilimlarini e'tibordan chetda qoldirmasdan o'zlashtirishlarini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi, o'quvchilarning mustaqil bilim olishlariga ham qaratilgan bo'lishi lozimligi kabilar.

OLINGAN NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

Olingan natijalar va ularning muhokamasiga asoslangan holda aytish mumkinki, darsni zamon talablari asosida tashkillashda va bugungi globallashtirish jarayoni o'qituvchiga bir necha kompetensiyalarni egallashi lozimligini ko'rsatadi. Ko'rinadiki, chet tilini o'rganish, agar o'quvchilarga chet tilida o'z fikrlarini bildirishlari uchun yetarli imkoniyatlar berilganda muvaffaqiyatli bo'ladi.

Biz kompetensiyalar haqida so'z yuritganimizda, doimo bilim va ko'nikma o'rtasidagi chambarchas bog'liqlikni nazarda tutamiz. O'qituvchilar o'z faoliyatlari davomida bu uzviylikka harakat qilishlari kerak bo'ladi. Shu kabi xususiyatlar yoki ularning hayotiy tajribalari o'z fanlari bo'yicha o'ziga xos ko'nikmalarni shakllantirib borish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Va faqat ushbu ko'nikmalargina o'qituvchilarga to'g'ri va muvaffaqiyatli harakat qilish imkonini beradi.

O'qituvchilik kasbi uchun qaysi kompetensiyalar ilmiy nuqtai nazardan muhimligini yaxshiroq tushunish, o'qituvchilik faoliyati uchun individual kompetensiyalarning ahamiyatini baholay olish, kuchli va zaif tomonlaridan xabardor bo'lish kabilar muhim hisoblanadi.

Nemis metodist olimi Hans Rudolf Lanker ta'kidlagan kompetensiyalardan tashqari yana shunday kompetensiyalar ham borki, ular ham o'qituvchilik faoliyati va o'quv jarayoni uchun muhim hisoblanadi. Masalan metodik kompetensiya, evaluatsion kompetensiya (Mazkur kompetensiyada o'tilgan mavzuni baholash, xulosalash talab etiladi.), kommunikativ kompetensiya, tarbiyalash kompetensiyasi (Ushbu kompetensiyada o'qituvchi tarbiyachi, maslahat beruvchi, yordamchi, qadriyatlarini tarqatuvchi jihatlari nazarda tutiladi.), shaxsiy va ijtimoiy kompetensiya (Bu kompetensiya orqali o'qituvchi guruhdagi har qanday salbiy va ijobiy xolatlardan xabardor bo'lishi, guruxdagi kelishmovchiliklarni bartaraf eta olishi lozim.), rivojlantiruvchi kompetensiya kabilar.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, sifatli va samarali darsni tashkillash uchun xorijiy til o'qituvchilari turli hildai kompetensiyalarni egallashi lozimdir. Ko'rib chiqilgan kasbiy kompetensiya, didaktik kompetensiya, darsni tashkillash kompetensiyasi, suhbatlashish kompetensiyasi, munosabat kompetensiyasi, shaxsiy kompetensiya, metodik kompetensiya, evaluatsion kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, tarbiyalash kompetensiyasi, shaxsiy va

ijtimoiy kompetensiya, rivojlantiruvchi kompetensiyalar asosida har bir xorijiy til o'qituvchisi o'z faoliyatini qayta shakllantirishi va doimo izlanishda bo'lishi talab etiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Lanker Hans Rudolf. Kompetenzen von Lehrenden. Schocker-von Ditzfurth. 2002.
2. Meyer Hilbert. Praxisbuch: Was ist ein guter Unterricht? - München: 2004
3. Ellis Rod. Principles of Instructed Language Learning. In: ASIAN EFL-Journal: 2005